

ONA TILI O'QITISHNING BUGUNGI DOLZARB MUAMMOLARI

Boymurodova Shohsanam Qahramon qizi

Andijon viloyati Izboskan tumani 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotation. Maqolada hozirgi kundagi ona tiliga bo'lgan munosabat, ona tili ta'limi zimmasidagi vazifalar, maktab darsliklari yangi DTS (2017)ning yangicha talablari asosida shakllantirilayotgani, asosiy e'tibor o'z ona tilida mustaqil fikrlaydigan, ravon va aniq so'zlay oladigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilayotgani ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ona tili ta'limi, DTS, mustaqil ishslash, mashqni tinglab tushunish, grammatik topshiriq, og'zaki nutq, yozma savodxonlik, ilmiylik, sistemalilik, izchillik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash.

Bugun zamon shiddat bilan o'zgarmoqda. Unga mos ravishda ta'lim tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Asosiy e'tibor ta'lim sub'yektini har tomonlama rivojlantirishga qaratilmoqda. O'z-o'zidan ma'lumki, bu jarayonda zalvorli yuk ona tili ta'limi zimmasiga tushadi. Chunki, bugungi informasion jamiyatda, bolani har tomondan turli-tuman ma'lumotlar o'rab olgan davrda uni g'oyaviy jihatdan himoya qiladigan, tashqi ta'sirlarga berilib ketmasligining oldini oladigan yagona kuch bu – ona tili ta'limi sanaladi. N.Mahmudov aytganidek: "Bolaning tafakkur imkoniyati parvarish qilinmasa, unga shaklu shamoyil, yo'nalish berilmasa, bola ulg'ayganda ham u imkoniyat sifatida yoki bir qolipdagi o'ylar tizimi sifatida qolaveradi. Bunday to'ng va tanbal tafakkur faol, harakatli, demakki, izlanuvchan va yaratuvchan bo'la olmaydi" [1;3]. Shu bois, mustaqillik yillarida yuzaga kelgan ona tiliga bo'lgan munosabat bugun mamlakatlar va xalqlar o'rtasida aloqalar kuchaygan, muammolarni hal etish ichki muammolardan global darajalarga ko'tarilgan davrda yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Mustaqillik yillarida yaratilgan yangi DTS (2017), darsliklar yangicha talablar asosida

shakllantirilmoqda. Asosiy e'tibor o'z ona tilida mustaqil fikrlaydigan, ravon va aniq so'zlay oladigan o'quvchilarni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilmoqda. Bu borada quyidagilarga rioya qilish lozim deb o'ylaymiz: 1. Bolani mustaqil ishlashga o'rgatish. Darsliklardi mashq va topshiriqlarni o'quvchining tafakkurini o'stirishga yo'naltirish, xalqaro va ilg'or ona tili o'qituvchilarning ko'p yillik amaliy tajribalardan foydalanish lozim. Darsslarni tashkil quyidagi bosqichlarga e'tibor berish talab etilmoqda: a) o'quvchini berilgan topshiriq yoki mashqni tinglab tushunishga o'rgatish; b) muammolar yuzasidan savollar qo'yish, javoblar olish, bolani gapirishga undash; v) grammatik topshiriqlar berish jarayonida asosiy e'tiborni bola nutqini o'stirishga qaratish; g) ona tili ta'limida o'quvchining og'zaki nutqini shakllantirish; d) o'quvchining yozma savodxonligini ta'minlash. 2. Ona tili o'qitishda asosiy e'tiborni bolani aqliy jihatdan rivojlantirishga qaratish. Darsliklarning yangi avlodlarini yaratishda bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ilmiy va tarbiyaviy maqsadlarga mushtarak tarzda har bir dars uchun rivojlantiruvchi maqsad o'rtaga tashlangan. Misol uchun 5-sinf "Ona tili" darsligidagi 21-darsni olaylik. U "Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari"ga bag'ishlangan. Gap turlari bo'yicha ma'lumot berish darsning ta'limiy maqsadi qilib olingan bo'lsa-da, asosiy maqsad o'quvchilarni yolg'onchi bo'lmashlikka chaqirish, ularni har doim rost so'zlashga o'rgatishga qaratilgan. Shu ma'noda Abdulla Avloniydan "Yomonlikning jazosi" degan matn olingan. Matn 12 ta gapdan tashkil topgan bo'lib, ularning 8 tasi darak gap, 2 tasi so'roq gap, 2 tasi buyruq gapdan iborat [2; 25-26]. Demak, darsni to'la o'zlashtirgan o'quvchining boshlang'ich ta'limda gap turlari bo'yicha olgan bilim va malakasi bir pog'onaga o'stiriladi. "Ona tili" darsliklaridagi barcha materiallar mana shu tamoyil asosiga qurilgan bo'lib, ularda birinchi galda o'quvchilarning tafakkurini o'stirishga jiddiy e'tibor berilgan. 3. Ilmiylikni ta'minlash. Boshlang'ich sinfdan tortib to'oliy ta'limgacha bo'lgan ona tili o'qitish tizimida bu tamoyilga alohida diqqat qaratiladi. Shu maqsadda barcha darslar oldiga ilmiy maqsadlar qo'yiladi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga qarab turib, materiallar murakkablashtirilib boriladi. Masalan, 6-sinfda "Orttirma nisbat qo'shimchalarining ishlatalishi" mavzusida (118-mashq) aytmoq, davom etmoq,

tirishmoq, intilmoq, tayyorlamoq, yuvmoq, quvonmoq, bilmoq, o‘ynamoq so‘zлari ishtirokida gaplar tuzish so‘ralgan [3;41]. 5-sinfdagи gap turlari bo‘yicha olingan ma’lumotlar mutahkamlanadi. O‘z-o‘zidan ma’lumki, ushbu fe’llar darak, so‘roq va buyruq gaplar ichida qo‘llanadi. Bunday topshiriqlar 5-11- sinf “Ona tili” darsliklarini to‘la qamrab olgan. Shu tariqa ilmiylik ta’minlangan. 4. Ona tili ta’limidagi eng muhim tamoyillardan birini sistemalilik va izchillik tashkil qiladi. Ona tilidagi barcha materiallar aniq bir tizim asosida birin-ketin berib boriladi. 5-sinfda “Fonetika va leksikologiya”, 6-7 sinflarda “So‘z turkumlari”, 8-9 sinflarda “So‘z birikmasi va gap”, 10-sinfda “Til uslublari”, 11- sinfda “Nutq madaniyati” o‘rgatiladi. Fonetikani o‘rgamasdan turib, leksikologiyani yoki morfologiyani o‘zlashtirish sira mumkin emas. Prof. A.G‘ulomovning fikricha, bunday yondashuv muttasillikka, muntazamlikka yo‘l ochadi va ona tili materiallarini puxta o‘zlashtirishga yaqindan yordam beradi [4;14-15].

5. Nazariyani amaliyat bilan bog‘lash. Avvalgi darsliklarda grammatika (nazariya)dan → amaliyotga borish tamoyiliga katta o‘rin berilgan edi. Sinxron darsliklarda amaliyotdan → nazariyaga o‘tildi. Bu orqali o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ulardagi og‘zaki va yozma nutq malakalarini takomillashtirishga e’tibor qaratilmoqda.

6. O‘quvchilardagi onglilik, faollik, mustaqillikka e’tibor berish. Har bir dars o‘quvchilarni faollikkа chorlovchi topshiriqlar bilan boshlanib, ta’riflarga, ulardan so‘ng mashqlar bajarishga, so‘ngra mavzuni mustahkamlashga e’tibor qaratilgan. 7. Shuningdek, ona tili o‘qitishda o‘quvchilarining yosh va individual xususiyatlarnini hisobga olish, fanlararo integratsiya masalasiga asosiy diqqatni qaratish masalasi ham eng dolzarb muammolardan biridir. Uzluksiz ta’lim tizimida amalda foydalanilayotgan “Ona tili” darsliklarida bu narsaga jiddiy e’tibor qaratilgan. Masalan, 5-sinf “Ona tili” darsligida internet, iqtisodiyot, tarix, geografiya, aniq va ijtimoiy fanlardagi matnlar, so‘zlardan unumli foydalanilgan. 8. Eng keraklisi, fidoyi, vatanparvar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan mukammal xabardor bo‘lgan, o‘z kasbining ustasi sanalgan ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchilarining yangi avlodini tarbiyalash kerak. Bu yo‘lda katta ishlar bajarilmoqda. Bakalavriatura va magistratura bosqichlarida yangi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar ochilmoqda, ilmiy-tadqiqot ishlarining sifat va

samaradorlik jihatlari o‘rganilmoqda. Umuman olganda, uzluksiz ta’lim tizimida ilmiylik, izchillik, faollik, nazariyani amaliyotga bog‘liq holda berish asosida butun kuch va xatti-harakatni bolaning tafakkurini o‘stirishga qaratish, uni mакtabning faol sub’yektiga aylantirish, undagi ijodiylikni, izlanuvchanlikni barvaqt uyg‘otish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Eng muhim, ona tili fani mutaxassislari o‘quvchida milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishda ona tili ta’limi barcha fanlarning oldida, yetakchi mavqeda turishini unutmasligi kerak. Ayniqsa, davlat tiliga e’tibor kuchaygan, millatdoshlarimiz o‘zbek tili taqdiriga bepisand qarayotgan hozirgi pallada bu juda muhim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Ona tili va ijodiy tafakkur takomili. – Toshkent, 2001.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. , Sobirov A., Qodirov V., Jo’rabyeva Z. Ona tili. 5- sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2007.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.
4. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Z.A. Djurabaeva (Uzbekistan, Andijan)